

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATLARI PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATINING TUSHUNCHASI

Narziev Shaxzodbek Zoyirovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
kafedrasi o'qituvchisi*

Xudoyqulov Eldorbek Abdunabi o'g'li

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,
317 guruh kursanti.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada profilaktika inspektorlarining qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan faoliyatining mazmun-mohiyati, huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Profilaktika inspektorlarining jinoyatlarning erta oldini olishdagi o'rni, ularning vakolatlari hamda hududlarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishdagi faoliyati yoritib beriladi. Shuningdek, qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar va ularni bartaraf etishda profilaktik choralarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola jinoyat profilaktikasi sohasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. profilaktika inspektori, jinoyat profilaktikasi, qasddan odam o'ldirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligi, kriminogen vaziyat, individual profilaktika.

Bugungi kunda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson hayoti va sog'lig'ini ishonchli himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaxs hayotiga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyatlardan biri bo'lgan qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining oldini olish masalasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu turdagi jinoyatlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitiga, jamoat xavfsizligiga va fuqarolarning huquqiy ongiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining oldini olishda ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yurituvchi profilaktika inspektorlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Ular bevosita mahallalarda xizmat olib borib, aholining ijtimoiy muammolarini o'rganish, nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlash hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan individual profilaktik ishlarni tashkil etish orqali jinoyatlarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan

«O'zbekiston – 2030» strategiyasida «Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun» degan tamoyil va «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g'oya, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqat o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali kuchli demokratik jamiyat qurishni hayotga amaliy tatbiq etishga qaratilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bugungi bosqichida ichki ishlar organlari, bevosita profilaktika xizmatlari tizimi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'z navbatida qasddan odam o'ldirish qaratilgan jinoyatlarning oldini olishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18 avgustdagi PQ-253-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvardagi PQ-1-son qarorining 5-ilovasi "Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha manzilli choralar Konsepsiyasi"ga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarga ko'ra, bugungi kunda mahallalardagi kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan bir qator omillar keltirib o'tilgan, ushbu omillar sifatida:

- «mahalla yettiligi»ning ijtimoiy profilaktika ob'ektlari va alohida toifadagi shaxslar (huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli bor shaxslar, ichki ishlar organlari hisobida turuvchi shaxslar) bilan olib borayotgan profilaktik tadbirlari natijadorligining pastligi;

- «mahalla yettiligi» vakillarining ijtimoiy profilaktikaga oid vazifalarni bajarish uchun bilimi, tajribasi va mahorati yetarli emasligi, profilaktika inspektorlarining xizmat yuklamasining yuqoriligi;

- «mahalla yettiligi» faoliyatini tashkil qilish, boshqarish va muvofiqlashtirishdagi tizimli muammolar, kadrlar salohiyatining pastligi va kadrlar qo'nimsizligi;

- mahallada ishsizlik va kambag'allik darajasi yuqoriligi, bu borada tizimli ishlar talab darajasida tashkil etilmaganligi;

- mahalladagi jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki qo'riqlari darajasining pastligi;

- mahallalar hududidagi davlat va nodavlat idora va tashkilotlar, savdo va bozor majmualari atrofida, shuningdek, jamoat joylari va aholi gavjum joylarda huquq-tartibot tizimining kuch va vositalarining yetarli emasligi;

- mahallalarda atrof-muhitni loyihalashtirish orqali jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar tatbiq etilmaganligi, «namunaviy xavfsiz ko'cha» va «namunaviy xavfsiz yo'lak»lar turli yondashuvlar asosida tashkil etilayotganligi;

- yirik shahar markazlaridagi ichki migratsiya jarayonlari to'liq nazoratga olinmaganligi hamda tuman (shahar) markazlaridagi bozor atrofidagi noqonuniy savdo rastalari va avtoturargohlarni tartibga solish choralari ko'rilmayotganligi;

- mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash va uning barvaqt oldini olish chora-tadbirlari ilmiy-amaliy yondashuv asosida yetarli darajada tashkil etilmagani;

- aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirish va tarbiyalashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarining ta'sirchan emasligi, ta'kidlanib kelgusidan mahallalarda jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish vazifasining ijrosini aynan shu jihatlarga qaratish zarurligi belgilab qo'yildi.

Bu borada ya'ni mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash va xavfsiz muhitni yaratish borasidagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iboratligi qayd etildi, bular:

- mahallalarda huquq-tartibot idoralari tomonidan kuch va vositalarni taqsimlash, boshqarish (muvofiglashtirish)ning yangi tizimini joriy etish;

- mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi ta'sirchanligi va natijadorligini oshirish borasida manzilli tadbirlarni uyg'unlikda amalga oshirish;

- alohida toifadagi shaxslar (voyaga yetmaganlar, yoshlar, ayollar, ishsizlar, muqaddam sudlanganlar, probatsiya hisobida turganlar va boshqalar) bilan manzilli, ta'sirchan ishlarni tizimli tashkil qilish;

- mahallalarda jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini qo'riqlash qamrovini izchil oshirib borish;

- innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, CPTED (Crime Prevention Through Environmental Design – atrof-muhitni loyihalash orqali jinoyatlarning oldini olish) konsepsiyasi asosida mahallalarda «namunali xavfsiz ko'cha» va «namunali xavfsiz uy» loyihalarini tashkil etish;

- mahallalarda aholining huquqiy ongini oshirish, sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, huquqbuzarliklarga murossasizlik muhitini yaratishda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish;

- mahalladagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning asl omillarini tizimli ravishda ilmiy yondashgan holda ta'lim muassasalari tomonidan o'rganib borish.

O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikni yanada pasaytirish hamda jinoyat sodir etishga va boshqa huquq buzilishiga moyil bulgan shaxslar bilan olib boriladigan profilaktika ishlarini takomillashtirish maqsadida, Ichki ishlar organlarida jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali natijalarga erishish, ularning miqdorini eng past darajaga tushirish, salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun xuquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini atroflicha o'rganish muxim ahamiyat kasb yetadi. Aynan qasddan odam o'ldirish jinoyatlarning profilaktikasini tashkil

etishni o'rganish va umumlashtirish jinoyatning sodir etilishini taqazo qiladigan, uni oziqlantiradigan, ko'payishini ta'minlaydigan xodisa, voqea va jarayonlar aniqlanadi xamda ularni bartaraf qilish choralari ishlab chiqiladi va amaliyotga tadbiq etiladi.

Inson hayotiga tajovuz qilish og'ir va o'ta xavfli jinoyatlardan biri hisoblanib, aynan bunday jinoyatlar sodir etilishi natijasida muhim ijtimoiy qimmatlik sanalgan inson hayotiga tuzatib bo'lmas (tiklab bo'lmaydigan) zarar yetkaziladi.

Inson hayoti fiziologik tug'ish boshlangandan to biologik o'lim (yurakda qon aylanish va miya hujayralarini kislorod bilan ta'minlash faoliyatining to'xtashi va uni tiklab bo'lmas jarayoni) ro'y bergunga qadar davom etadi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun inson hayotining boshlanish vaqti va o'lim kelib chiqish vaqtini aniqlash muhim huquqiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, ona qornidagi tug'ilmagani bolaga tajovuz qilish homilador ayol sog'lig'iga zarar yetkazish deb, tirik odam deb murdaga tajovuz qilish qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish deb baholanadi.

Bugungi kunda mazkur masala muhim huquqiy, etik va tibbiy muammo sifatida baholanmoqda, chunki zamonaviy tibbiyotda o'lim ro'y berishi mumkin bo'lgan insonni hayotga qaytarish uchun boshqa shaxsning organi va to'qimalarini transplantatsiya maqsadida foydalanish mumkinligini ko'rsatmoqda. Shu bois, qaysi vaqtdan boshlab shaxs hayoti ushbu jinoyatning ob'ekti bo'ladi? Tug'ilgan vaqtdanmi yoki ona qornida homila paydo bo'lgan vaqtidami? – degan o'rinli savol tug'iladi. Bu esa, insonni jamiyatda shaxs sifatida tan olish va inson hayotining jinoiy-huquqiy muhofaza ob'ekti sifatida baholash mumkinligi haqidagi masalani to'g'ri hal qilishni taqozo etadi.

Yuridik adabiyotlarda bu borada qarama-qarshi fikrlar ilgari surilgan. Ayrim mualliflar inson hayotining boshlanish payti deb go'dakning nafas ola boshlashi yoki bolaning ona qornidan to'liq ajralib chiqish vaqtini hisoblaydilar. Boshqalar esa, homilaning yetarli darajada rivojlanib, ona qornida homila tarzida hayot uchun barcha zaruriy sifatlarga ega bo'lganligini tasdiqlovchi jismoniy to'lg'oqning boshlanishi bilan belgilaydilar. Ammo aytish joizki, homila ona qornida bo'lar ekan uni hali ayol organizmining bir qismi sifatida qarash kerak. Shuning uchun ham mazkur qarashlarga qo'shilish qiyin, chunki bunday hollarda homilaga zarar yetkazishni homilador ayolning sog'lig'iga zarar yetkazish deb qarash kerak va bunday qilmish jinoyat kodeksining sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi bobining tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Alohida mualliflar esa, inson hayoti boshlanishini faqat tibbiy mezonlar asosida aniqlash kerakligini ta'kidlaydilar. Tibbiy nuqtai nazardan inson hayotining boshlanishi deganda, homilador organizmidan homilaning barcha mahsulotlari

to'liq surilib chiqishi va tug'adigan ayoldan chaqaloqning kindigi hali kesilmagan holda homilaning to'liq ajralishi hamda chaqaloqning nafas olishi, yurak urishi, kindik ichakchasining urib turishi yoxud ixtiyoriy ravishda muskullarining harakatga kelishi tushuniladi. Modomiki, tibbiyot va jinoyat huquqi o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli vazifalarni ko'zda tutadi. Bunda ularning farqi bu kabi ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish usullari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan inson hayoti boshlanishini faqat Inson hayotiga tajovuz qilish og'ir va o'ta xavfli jinoyatlardan biri hisoblanib, aynan bunday jinoyatlar sodir etilishi natijasida muhim ijtimoiy qimmatlik sanalgan inson hayotiga tuzatib bo'lmas (tiklab bo'lmaydigan) zarar yetkaziladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining profilaktikasi quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- qasddan odam o'ldirish jinoyatlardan jabrlanuvchilarni o'z vaqtida aniqlash va himoya qilish;
- qasddan odam o'ldirish jinoyatlardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- qasddan odam o'ldirish jinoyatlardan jabrlanishning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganish, tahlil qilish hamda jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar toifalarini aniqlash;
- qasddan odam o'ldirish jinoyatlardan viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- qasddan odam o'ldirish jinoyatlardan jabrlanuvchilarni umumiy va yakka tartibda qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;
- qasddan odam o'ldirish jinoyatlardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- qasddan odam o'ldirish jinoyatlardan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek ishlab chiqishda ishtirok etish va amalga oshirish;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki qasddan odam o'ldirish jinoyatlar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarga (hududlarga) patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash xizmatini jalb etish;
- hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat chegaralari haqidagi ma'lumotlarni targ'ibot-tashviqot qilish orqali aholida qilingan hujumni bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatlar to'g'risida axborotni tezkorlik bilan olish, ularni bartaraf etish;
- ichki ishlar organlarida tashkil etilgan jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlardagi ma'lumotlarni o'z vaqtida o'rganib chiqish, tahlil qilish;
- profilaktika dasturi va tadbiri loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlab, bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- qasddan odam o'ldirish jinoyatlar profilaktikasining zamonaviy usullariga doir elektron adabiyotlarni yaratish hamda tarqatish.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatlar deganda, qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish natijasida boshqa shaxsning hayotiga tahdid (suiqasd) qilish yoki to'g'ridan-to'g'ri uning o'limiga sabab bo'lish yoxud o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish tushuniladi.

Tahlil etilayotgan jinoyatlarning bevosita ob'ekti yoshi, sog'lig'i yoki yashash qobiliyatidan qat'i nazar har qanday shaxsning hayoti hisoblanadi. Shu sababli chaqaloq, keksa, sog'lom yoki kasal odamni hayotdan mahrum qilishga qaratilgan har qanday ijtimoiy xavfli qilmish odam o'ldirish deb tan olinadi. Tahlil etilayotgan jinoyatlarning ob'ektiv tomoni qonunga xilof ravishda boshqa shaxsning hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi. Odatda, inson hayotidan mahrum qilish jismoniy ta'sir o'tkazish orqali sodir etiladi, biroq u ruhiy ta'sir (qo'rqitish) o'tkazish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin. Xususan, bunda harakat huquqqa xilof ravishda boshqa shaxs hayotidan mahrum qilishga olib keluvchi jabrlanuvchiga bevosita jismoniy (masalan, har qanday qurol ashyodan foydalanish, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta issiq yoki o'ta sovuq havoda ochiq yerda qoldirish va sh.k.) yoki ruhiy (yurak tomir kasalligi bilan kasallangan shaxsga ruhiy jarohat yetkazish yo'li bilan hayotidan mahrum qilish) ta'sir o'tkazishda ifodalanadi. Shu bilan birga, qasddan odam o'ldirish jinoyatlar (odam o'ldirish) harakatsizlikda ham sodir etilishi mumkin. Harakatsizlik faqat o'limni kelib chiqishini oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha maxsus majburiyat yuklatilgan taqdirdagina kelib chiqadi (masalan, shifokorning har qanday bemor hayotiga xavf tahdid solganda ularga yordam ko'rsatishi bo'yicha yuklatilgan majburiyat yoki onaning yangi tug'ilgan chaqaloqqa qaramasligi va hokazo). Bunday majburiyatlar shaxsga qonun, qonunosti hujjatlari yoki jamiyatda umume'tirof etilgan axloq normalari asosida o'z zimmasiga majburiyat olish bo'yicha urf-odat (an'ana) qoidalari bilan yuklatilgan bo'lishi mumkin. Shu bois, harakatsizlik tufayli odam o'ldirish faqat shaxsga yuklatilgan o'z vazifasini

bajarmasligi yoki o'limining oldini olishi mumkin bo'lgan hollarda harakatsizlik qilganida kelib chiqadi. Ta'kidlash kerakki, agar aybdor yanglishish asosida (nazarda tutilganidan boshqa shaxs hayotiga huquqqa xilof ravishda tajovuz qilsa yoki predmet yoxud narsa o'rniga odam o'ldirib qo'ygan bo'lsa) boshqa shaxsning hayotidan mahrum qilgan bo'lsa ham qilmish odam o'ldirish tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorining qasddan odam o'ldirish jinoyatlarni profilaktikasini tashkil etish faoliyatida qasddan odam o'ldirish jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni atroflicha o'rganish va zarur profilaktik chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Aliqulovich T. A., Shukurjon o'g'li I. J. Кибержиноятларга қарши курашнинг замонавий тенденциялари // Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 33-40.

3. Aliqulovich T. A., Bahodir o'g'li B. A. Raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan tovlamachilik jinoyatlariga qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari // Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 9-14.

4. Aliqulovich T. A., Axmat o'g'li M. A. Majburiy jamoat ishlari bilan bog'liq jazoga hukm qilingan shaxslar bilan ishlashda iio profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari // Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 4-8.

5. Aliqulovich T. A., Ilhom o'g'li B. S. Badanga og'ir tan jaroxati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasini tushunchasi va uni amalga oshirish choralari // Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 87-92.

6. Aliqulovich T. A. et al. Терроризм билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш этиш ва амалга оширишнинг хусусиятлари // Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 15-20.

7. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasi, turlari va ijtimoiy xavfi // Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 213-219.

8. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini oldini olishning huquqiy asoslari // Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 220-226.

9. Aliqulovich T. A., Akmal o'g'li M. A. Haq to 'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish jazosining tushunchasi va vazifalari //Научный Импульс. – 2025. – Т. 4. – №. 39. – С. 39-43.

10. Aliqulovich T. A., Nazirjon o'g'li I. D. Profilaktika inspektorining jamoat joylarida bezorilik jinoyatlarini oldini olish foliyatining tashkiliy asoslari //Научный Импульс. – 2025. – Т. 4. – №. 39. – С. 202-207.

11. Asilbek O'tkir o'g N. et al. Ma'muriy nazorat o 'rnatilgan shaxslarga sud organlari tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //Ijodkor o'qituvchi. – 2025. – Т. 5. – №. 54. – С. 11-17.

12. Aliqulovich T. A., Qaxramonjon o'g'li N. J. Profilaktika inspektorining qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirish yo 'nalishlari //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – Т. 4. – №. 40. – С. 147-153.

13. Таштемиров А. А. и др. Профилактика инспекторининг нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамкорлигининг ўзига хос хусусиятлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Т. 4. – №. 47. – С. 189-196.